

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

IBAYEV ANVAR JO'RABEKOVICH

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KOMPARATIV SINTAKTIK
QURILMALAR DERIVATSIYASI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам
The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Ibayev Anvar Jo'rabekovich

Ingliz va o'zbek tillarida komparativ sintaktik qurilmalar derivatsiyasi 3

Ibaev Anvar Jurabekovich

Derivation of comparative syntactic devices in English and Uzbek languages 23

Ибаев Анвар Джурабекович

Деривация компаративных синтаксических конструкций в английском и узбекском языках..... 43

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works 47

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

IBAYEV ANVAR JO'RABEKOVICH

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KOMPARATIV SINTAKTIK
QURILMALAR DERIVATSIYASI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2020.1.PhD/Fil1143 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Turniyozov Ne'mat Qayumovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Axmedov Oybek Safarboyevich
filologiya fanlari doktori, professor

Qilichev Bayramali Ergashevich
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot: Andijon davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «09» sentabr soat 11⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (333 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «09» avgust kuni tarqatildi.

(2023-yil «09» avgust da 23-26 - raqamli reestr bayonnomasi.)



[Handwritten signature in blue ink]

D.S.O'rayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

Z.I.Rasulov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.M. Jo'rayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida insonga xos shaxsiy sifatlarning tilda aks etishi masalasi lingvokognitologiya, lingvokulturologiya, sotsiolingvistika, pragmalingvistika va ularning qorishuvidan iborat sotsiopragmalingvistika kabi ilg'or fan yo'nalishlariga alohida e'tibor kuchaydi. Tilshunoslar diqqati ko'p yillar mobaynida tilning murakkab sistemasi va uning o'ziga xos muammolariga qaratilgani tilshunoslikning derivatologiya yo'nalishini shakllanishiga asos bo'ldi. Derivatsiyaning sintaktik, leksik, semantik hamda boshqa turlari bo'yicha amalga oshirilgan izlanishlar, jumladan komparativ sintaktik qurilmalarning derivatsion aspektida o'rganish, ularni chog'ishtirish, har ikkala til partikologiyasini yangi nazariyalar bilan boyitish, ob'ektiv haqiqatni til vositalari orqali anglash va anglatishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida komparativ sintaktik qurilmalar masalalariga, xususan ularning tasnifi, formal-struktur jihati, derivatsion tahliliga oid ilmiy-nazariy tadqiqotlar, komparativ sintaktik qurilmalarning kognitiv-pragmatik xususiyatlari nazariyasiga oid masalalar tilshunoslikka doir adabiyotlarda mazkur muammolarni yoritish uchun fundamental asos bo'lib xizmat qiladigan lisoniy vositalarning mantiqiy vazifadorligini o'rganish ehtiyojini keltirib chiqardi. Zero, zamonaviy tilshunoslikda ustuvorlik kasb etgan ingliz va o'zbek lingvoplatfomalarida komparativ sintaktik qurilmalar derivatsiyasining grammatik, morfologik-sintaktik mohiyatini ularning funktsionalligi doirasida izohlash amaliyoti har qanday kommunikativ diskursda voqelanadigan nutq va fikrning illokutiv kuchi, pragmatik ta'siri, shakl va mazmun yaxlitligini ilmiy baholashga, derivatsiya tamoyillarining universal tabiati masalasiga doir ilg'or nazariyalarni yaratishga xizmat qiladi.

O'zbek tilshunosligida ham istiqlool sharoitida komparativ sintaktik qurilmalar tadqiqi, sintaktik qurilmalarning bog'lanishli nutq mahsuli ekanligi, ularning semantik va sintaktik xususiyatlariga alohida ahamiyat berilib, mazkur masala doirasida keng qamrovli tadqiqotlar yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga, chet tillarni o'qitish va ularni o'zbek tili bilan solishtirish, o'zbek tilining sofligini saqlashga e'tibor kuchaydi. Zero, "...davlat tilining sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish; davlat tilining zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalariga faol integratsiyalashuvini ta'minlash"¹ hozirgi kunda o'zbek tilshunosligi oldida turgan dolzarb vazifalardan biridir. Shu bois, komparativ sintaktik qurilmalarning lisoniy tabiatini lingvistikaning zamonaviy yo'nalishlaridan bo'lmish derivatologiya tamoyillariga asoslangan holda atroflicha tadqiq etish tilshunoslik fanining rivojlanishi uchun ham muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqegini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga

¹. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 20-oktyabrdagi «Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6084-son farmoni // <https://lex.uz/docs/5058351>

mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda boshqa me'yoriy huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Derivatologiya atamasi 1981-yilda Perm universitetida «Derivatologiyaning nazariy muammolari» deb nomlangan nufuzli ilmiy konferensiyada qabul qilindi. Biroq bundan oldin hosila struktura masalasi polyak tilshunosi Yeji Kurilovich tomonidan 1936-yilda «Derivation lexicale et derivation syntaxique» deb nomlanuvchi ishida yoritiladi². Ammo umumiy tilshunoslikda bu asarga ko'p yillar davomida jiddiy ahamiyat berilmadi. Yeji Kurilovichning mazkur ishi faqat 1962-yilga kelib, «Деривация синтаксическая и деривация лексическая» nomi bilan rus tiliga tarjima qilindi va rus tilshunosligida bu yo'nalishda ma'lum darajada burilish yasaldi. Buning dalili sifatida birin-ketin e'lon qilingan quyidagi olimlarning ishlarni ko'rsatishimiz mumkin: L.N.Murzina, O.M.Sharina³, S.D.Kasnelson⁴, Ye.S.Kubryakova⁵, O.I.Moskalskaya⁶, I.P.Raspopov, S.N.Sycheva⁷, T.V.Markelova⁸, G.V.Makovich⁹, A.G.Anisimova, I.N.Fomina¹⁰, Yu.V.Trubnikova¹¹ va boshqalar.

Mavzuga doir tadqiqotlarning salmoqli qismini g'arb olimlarining ishlari ham

². Qarang: Kurilovich Y. Derivation lexicale et derivation syntaxique. - BSL, 1936.

³. Мурзин Л.Н., Шарина О.М. Деривация структур сложноподчиненных предложений в русском языке - Пермь, 1971; Мурзин Л.Н. Синтаксическая деривация (анализ производных предложений русского языка). - Пермь, 1974; Мурзин Л.Н. Синтаксическая деривация (на материале производных предложений русского языка). Докторlik dissertatsiyasi. -Л., 1976; Мурзин Л.Н. О деривационных механизмах текстообразования // Теоретические аспекты деривации. -Пермь, 1982; Мурзин Л.Н. Основы дериватологии. -Пермь, 1984.

⁴. Кацнельсон С.Д. Порождающая грамматика и принцип деривации// Проблемы языкознания. -М., 1967.

⁵. Кубрякова Е.С. Деривация, транспозиция, конверсия//ВЯ, 1974, № 5.

⁶. Москальская О. И. Синтаксическая парадигматика и синтаксическая деривация//Проблемы общего и романо-германского языкознания. -М.,1978.

⁷. Распопов И. П., Сычева С. Н. Синтаксическая деривация и синтаксическая синонимия//НДВШ, ФН, 1974, № 6.

⁸. Маркелова Т.В. Системный подход в русистике. Деривационная типология оценочного значения // Русский язык: исторические судьбы и современность. Матер. II Международного конгр. -М., 2004.

⁹. Макович Г.В. Деривационная парадигма предложений, организованных описательными предикатами // Русский язык: исторические судьбы и современность. Матер. II Международного конгр. -М., 2004.

¹⁰. Анисимова А.Г., Фомина И.Н. Проблемы семантической деривации и образования политических терминов // ФН, 2006, № 6.

¹¹. Трубникова Ю.В. Вопросы деривационного функционирования текста // Русский язык: исторические судьбы и современность. Матер. III Международ. конгресса. -М., 2007.

tashkil etadi. Bulardan J.C.Catford¹², E.Coseriu¹³, C.James¹⁴, M.Chetin¹⁵ kabi olimlarning tadqiqotlari derivatsion masalalarga hamda komparativ qurilmalar lingvistikasiga bag'ishlangan.

O'zbek tilshunosligida ham derivatologiya muammolari bir necha monografik tadqiqotning mavzusi bo'ldi. Jumladan, N.K.Turniyozov hozirgi o'zbek tilida gipotaktik qurilmalarning sintaktik derivatsiyasini tadqiq etgan¹⁶, G'.X.Yaxshiboyev esa hozirgi o'zbek tilida sodda gap sintaktik xususiyatlarini derivatsion aspektda o'rgangan¹⁷, A.A.G'afforov tomondan hozirgi o'zbek tilida parsellyativ va ilovali qurilmalarning sintaktik derivatsiyasi muammolari tadqiq qilingan¹⁸, B.N.Turniyozov hozirgi o'zbek tilida teng komponentli murakkab sintaktik qurilmalar derivatsiyasi masalalarini yoritgan¹⁹, Sh.N.Turniyazova matnning derivatsion xususiyatlarini yoritib bergan²⁰, S.E.Shodiyev frazeologik iboralarning derivatsion xususiyatlari masalalarini tadqiq qilgan²¹. Ammo sanab o'tilgan ishlarda derivatsion muammolarga doir muhim ma'lumotlar mavjud bo'lsa-da, ingliz va o'zbek tillari misolida komparativ sintaktik qurilmalarning derivatsion jihatlarini qiyosiy aspektda o'rganish ko'zda tutildi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq OT-F8-062 raqamli «Til taraqqiyotining derivatsion qonuniyatlari» mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi hozirgi ingliz va o'zbek tillarida sintaktik qurilmalarning derivatsion tamoyillari, o'ziga xos hamda farqli xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

turli til sathlarida (sintaktik, semantik, kognitiv) qiyoslash kategoriyasining maqomini aniqlash;

qiyosiy makroparadigmaning tipologik tavsifini berish (o'xshash va farqli tomonlama);

ingliz va o'zbek tillarida kichik komparativ sintaktik qurilmalar derivatsion xususiyatlarini yoritish;

ingliz va o'zbek tillarida katta komparativ sintaktik qurilmalar derivatsion muammolari ilmiy tavsifini berish;

¹². Catford J.C. A Linguistic Theory of Translation. London: Oxford Univ. Press, 1965;

¹³. Coseriu E. Zusammenfassung der Ergebnisse. – In: Probleme der kontrastiven Grammatik. Düsseldorf. 1970;

¹⁴. James C. Deeper Contrastive Study. – In: IRAL, 1969.

¹⁵. Chetin M. Hozirgi o'zbek va turk tillarida so'z birikmasi sintaktik derivatsiyasi. Nomz. dis. Samarqand 2002. B.39.

¹⁶. Турниязов Н.К. Синтаксическая деривация гипотаксиса в современном узбекском языке. Докт. дис. Москва, 1985.

¹⁷. Yaxshiboyev G'.X. Hozirgi o'zbek tilida sodda gap sintaktik derivatsiyasi. Nomz. dis. avtoref. Samarqand, - 2004.

¹⁸. G'afforov A.A. Hozirgi o'zbek tilida parsellyativ va ilovali qurilmalarning sintaktik derivatsiyasi". Nomz. dis. avtoref. Samarqand, 1997.

¹⁹. Turniyozov B.N. Hozirgi o'zbek tilida teng komponentli murakkab sintaktik qurilmalar derivatsiyasi. Nomz. dis. Samarqand, 2008.

²⁰. Turniyazova Sh.N. Matn derivatsiyasida leksik vositalarning o'rni. Doktorlik dis. Farg'ona, 2021.

²¹. Shodiyev S.E. Frazeologik iboralarning derivatsion xususiyatlari. Xorijiy filologiya. №4, 2017.

qiyosiy qurilmalarning struktur xususiyatlari o'rganish;

Tadqiqotning obyekti sifatida hozirgi ingliz va o'zbek tillaridagi komparativ sintaktik qurilmalar olingan.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o'zbek tillaridagi sintaktik qurilmalar derivatsiyasining struktur xususiyatlari, o'xshash va farqli jihatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-chog'ishtirma, kontekstual, deskriptiv, distributiv hamda sintaktik derivatsiyaning aplikativ va transformatsion usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz va o'zbek tillari sintaktik kengligida sintaktik qurilmalarning derivatsion xossalari gapning mantiqiy urg'u, so'z tartibi, kontekst va ohang vositasida kommunikativ yoki aktual bo'laklarga ajralishida namoyon bo'lishi, fikr yoki propozitsiyaning kommunikativ markazini belgilash funksiyasining gap qurilmasidagi o'rni, o'zi aniqlab kelgan so'zga nisbatan joylashuvi bilan bog'liqlikda amalga oshishi dalillangan;

qiyoslanayotgan tillardagi sodda gaplar qolipidagi komparativ sintaktik qurilmalarning operator, operand, derivat xususiyatlari; tub, tayanch, hosila strukturali turlari hamda transformatsiya va aplikativ modellari gap yoki fikr tema va remasini belgilashda ustuvorlik qilishi aniqlangan;

har ikkala tilda tobe komponentli komparativ murakkab sintaktik qurilmalarning derivatsion shakllanishidagi kompleks tasnifi asosida ularning monooperatorli, polioperatorli va dubloperatorli MSQlar derivatsion xarakteri mavjudligi, ushbu qurilmalarning makon va zamon sathida hamda umumiy semantik maydonda o'zbek tilidagi dubloperatorga tayangan MSQ derivatsiyasi, ingliz tilidagi monooperatorga tayangan derivatsiyasi hosil bo'lishi isbotlangan;

har ikkala tilda teng komponentli komparativ murakkab sintaktik qurilmalar derivatsiyasi yuqori funksional potentsialga va o'zining pragmatik tabiatiga egaligi, kontekstual va kommunikativ shartlanganligi, paradigmatic (lisoniy) va sintagmatic (nutqiy) aktuallashuv kabi omillar integratsiyasi negizida shakllanganligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

turli tizimli tillar hisoblangan ingliz va o'zbek tillaridagi komparativ sintaktik qurilmalarning morfologik-sintaktik (grammatik), stilistik, semantik, aksiologik, suggestivlik, aktualizatorlik, matn shakllantiruvchilik, modifikatorlik xususiyatlariga ega vazifalari ochib berilgan;

ingliz va o'zbek tillaridagi teng hamda tobe komponentli komparativ sintaktik qurilmalarning derivatsion xususiyatlari va MSQ (murakkab sintaktik qurilma) qismlarini bog'lovchi vositalar operator maqomida kelishi asoslangan;

ingliz va o'zbek tillarida qiyosiy qurilmalarning struktur xususiyatlari o'xshash va farqli tomonlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchiligi muammoning aniq qo'yilishi, xulosalarning qat'iyligi, shuningdek, tadqiqot yo'nalishi va tadqiqot metodlari, chiqarilgan xulosalarning qiyosiy-chog'ishtirma, kontekstual, deskriptiv, distributiv hamda sintaktik derivatsiyaning aplikativ va transformatsion kabi usullar bilan asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy

etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olingan ilmiy xulosalar va muhim nazariy umumlashmalardan oliy ta'lim muassasalarining filologiya fakultetlarida nutq lingvistikasi, til nazariyasi, matn lingvistikasi fanlaridan darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Ishning amaliy ahamiyati oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlarida, filologik yo'nalishdagi institutlarda nutq lingvistikasi, matn tilshunosligi masalalari bo'yicha ma'ruzalar o'qish, amaliy va seminar mashg'ulotlar olib borish, maxsus kurslar o'tish, darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratish va turli tavsiyanomalar tuzishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o'zbek tillarida komparativ sintaktik qurilmalar derivatsiyasini o'rganish bo'yicha ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

ingliz va o'zbek tillari sintaktik kengligida sintaktik qurilmalarning derivatsion xossalari gapning mantiqiy urg'u, so'z tartibi, kontekst va ohang vositasida kommunikativ yoki aktual bo'laklarga ajralishida namoyon bo'lishi, fikr yoki propozitsiyaning kommunikativ markazini belgilash funktsiyasining gap qurilmasidagi o'rni, o'zi aniqlab kelgan so'zga nisbatan joylashuvi bilan bog'liqlikda amalga oshishiga oid nazariy xulosalardan Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida bajarilgan FA-F1-G003 raqamli "Hozirgi qoraqalpoq tilida funksional so'z yasalihi" hamda FA-A1-G007- raqamli "Qoraqalpoq naql-maqollari lingvistik tadqiqot obyekti sifatida" mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 2022-yil 04-oktyabrdagi №17.01/110-son ma'lumotnomasi). Natijada qoraqalpoq tilida leksik derivatsiya tamoyillari hamda qoraqalpoq naql-maqollari lingvistik tadqiqotlarida mikromatn derivatsion tamoyillari va ularning pragmatik xususiyatlarini asoslashga erishilgan.

qiyoslanayotgan tillardagi sodda gaplar qolipidagi komparativ sintaktik qurilmalarning operator, operand, derivat xususiyatlari; tub, tayanch, hosila strukturali turlari hamda transformatsiya va applikativ modellari gap yoki fikr tema va remasini belgilashda namoyon bo'lishiga oid nazariy va amaliy materiallardan Samarqand davlat chet tillar institutida 2018-2021 yillarda amalga oshirilgan Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi 585845-EPP-1-2017-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP CLASS: "Developing Interdisciplinary Master Program on Computational Linguistics at Central Asian Universities" (Markaziy Osiyo universitetlarida Kompyuter lingvistikasi magistratura dasturini tayyorlash) mavzusidagi innovatsion tadqiqot loyhasini bajarishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2022-yil 19-avgustdagi №2326/30.02.01-son ma'lumotnomasi). Natijada derivatsion jarayonda murakkab sintaktik qurilmalar operatorini aniqlash va uning o'rnini belgilash mukammallashgan;

har ikkala tilda tobe komponentli komparativ murakkab sintaktik qurilmalarning derivatsion shakllanishidagi kompleks tasnifi asosida ularning monooperatorli, polioperatorli va dublooperatorli MSQlar derivatsion xarakteri

mavjudligi, ushbu qurilmalarning makon va zamon sathida hamda umumiy semantik maydonda o‘zbek tilidagi dubloperatorga tayangan MSQ derivatsiyasi, ingliz tilida monooperatorga tayanishi mumkinligi bilan bog‘liq xulosa va natijalardan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston” teleradiokanali “Bedorlik”, “Ta’lim va taraqqiyot” “Adabiy jarayon” eshittirishlarining stsenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining 2022-yil 23-dekabrda №04-36-2123–son ma’lumotnomasi). Natijada mazkur ilmiy xulosalar tinglovchilarning tilshunoslik zamonaviy yo‘nalishlariga, lingvistikaga oid ilmiy-nazariy tadqiqotlarga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshirishda alohida ahamiyat kasb etgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqotning natijalari 7 ta, jumladan, 1 ta respublika va 6 ta xalqaro ilmiy konferensiyalarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 15 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, ulardan, 4 tasi respublika va 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, umumiy hajmi 134 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, predmeti va obykti aniqlangan. Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslanib, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Hozirgi tilshunoslikda komparativistika muammolari o‘rganilishining nazariy asoslari”** deb atalgan. Uning *“Komparativistika hozirgi tilshunoslar talqinida”* deb nomlangan birinchi faslida komparativistika muammolari jahon tilshunosligining dolzarb masalasi ekanligi, nazariy komparativistikaning rivojlanishi va uning muammolar ko‘lamini aniqlash bilan bog‘liq masalalar yoritilgan.

Fan o‘z rivojlanishining yangi davriga qadam bosar ekan, uning dinamik o‘sishi insoniyatni qotib qolgan chegaralarni yorib chiqishga undayapti. Jumladan, tilshunoslikka komparativistik yondashish bugungi kunda alohida e’tibor talab qilayapti. Aynan shuning uchun ham komparativistika muammolari hozirda keng ko‘lamda tahlil qilinmoqda. Fikrimiz dalilini komparativistika nafaqat tilshunoslik doirasida (qiyosiy lingvistik), balki qiyosiy adabiyotshunoslikda, qiyosiy pedagogikada, qiyosiy o‘lkashunoslikda, qiyosiy dinshunoslikda, hattoki qiyosiy

huquqshunoslik bilan ekonomika doirasidagi qiyosiy tadqiqotlarda o'rganilishida ko'rishimiz mumkin.

Nazariy komparativistikaning taraqqiy etishi uning muammolar ko'lamini aniqlash bilan bog'liqdir. Bu holat xususiylikdan umumiylikka, individual tahlildan tarixiy, antologik, mantiqiy tahlilga qarab o'sishda namoyon bo'ladi. Biz ko'rib chiqayotgan masala lingvistik komparativistika ekan, bunda shuni ta'kidlash joizki, tilning o'zi qanchalik qadimiy tarixga borib taqalsa, tillarni taqqoslash muammolari ham shunchalik qadimiy o'tmishga egadir. Shunisi ahamiyatliki, zamonaviy tilshunos biror "ekzotik" tilni yoki shevani o'rganar ekan, ongida o'z ona tilining yoxud uning uchun tanish bo'lgan boshqa biror tilning umumiy sxemasini gavdalandiradi hamda o'z-o'zidan mazkur sxema bilan yangi o'rganilayotgan tilning faktlarini solishtiradi.

Qiyosiy lingvistika tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, aytish lozimki, mazkur yo'nalish bo'yicha o'tgan asrda ko'plab tadqiqot ishlari bajarilganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Bunday izlanishlar ingliz va amerikalik tilshunoslar bilan bir qatorda Praga tilshunoslik maktabi vakillari tomonidan ham olib borilgan. Tilshunoslikda qiyosiy tipologiya yo'nalishi ikkitillilik (bilingvizm), ko'ptillilik (polingvizm), tillararo munosabat, bir necha tillarning bir-biriga ta'siri, tillardagi mushtaraklik yoki nomushtaraklik kabi bir necha xil atamalar bilan ifodalanishi ham tahlil etilgan.

Mazkur tadqiqot ishlari haqida gapirar ekanmiz, Sh.Balli, L.V.Sherba, Ye.D.Polivanovning ishlarini alohida ta'kidlab o'tmoq joizdir. Shu bilan birga, tilshunoslikning bu yo'nalishi A.I.Smirniskiy, A.V.Yarsev, V.D.Arakinlarning²² ishlarida tillarning qiyosiy tahlili nazariy asoslanib berilishi bilan o'z ifodasini topgan. Yuqorida keltirilganlardan fanda asosan qiyosiy (kontrastiv) lingvistika hamda lingvistik tipologiyaning farqli va o'xshash tomonlari e'tiborni tortib, bu masala olimlar o'rtasida tahlil, bahs va munozalar obyektiga aylandi. Bu haqda V.Skalichka quyidagilarni yozadi: "Tipologiya til sistemasining alohida komponentlarini qiyoslaydi. Biroq uning asosi sifatida ikkitadan ortiq turli tillarni olib qaraydi. Qiyosiy lingvistika esa tillarni faqat ikki til doirasidagina taqqoslaydi. Ammo bu taqqoslash til sistemasining barcha elementlari asosida ro'y beradi"²³.

Bundan tashqari, qiyosiy lingvistika va tipologiyani qarama-qarshi qo'yganda, olimlar tipologiya nisbatan mavhumlikka ega ekanligini, qiyosiy lingvistika esa tipologiyadan farqli o'laroq, aniqlikka intilishini ta'kidlashgan. Boshqacha aytganda, qiyosiy lingvistika tipologiyaga material, obrazli qilib aytadigan bo'lsak, xom ashyo beradi. Tipologiya esa, o'z navbatida, qiyosiy lingvistikaga umumiylik va farqlilik jihatidan kerakli ma'lumotlarni yetkazib beradi. Aytish joizki, qiyosiy lingvistikaning materiallarini amalda qo'llashda, shu jumladan, tillarni o'qitishda katta e'tiborni o'xshash tomonlardan ko'ra farqli tomonlarga qaratish lozim bo'ladi. Ammo shuni ham qayd etish lozimki, har qanday tillarni solishirilganda ularning farqli tomonlarini ochib berar ekanmiz, o'z-o'zidan o'xshash tomonlari ham kelib chiqadi. Muhimi shundaki, qiyosiy

²². Mualliflar haqida qarang: Виноградов В.А. Статьи по общему языкознанию, компаративистике, типологии. Москва. – 1986 г.

²³. Skalichka V. Tipologie a konfrontační lingvistika. – In: Československa rusistika, 1961, 7,4, 210-212.

analizning obyektini til birliklarining istalgan darajadagi ko‘rinishlari tashkil qilishi mumkin: fonemalar, so‘zlar, grammatik butunliklar (hattoki matnga qadar).

Keltirilganlar bilan bir qatordla shuni ham ta’kidlash joizki, yuqorida aytib o‘tilgan olimlarning ayrim fikrlariga qaramay, qiyosiy jabhadagi tadqiqotlar nafaqat ikki, balki uch yoki undan ham ko‘p tillar bilan bog‘liq bo‘ladi. Ammo mazkur tadqiqotlarning eng keng tarqalgani ikki til doirasida yuz beradi. Shu sababdan biz bunlay tahlilning namunalarini hech ikkilanmay bi-ideosinxronik analiz, ya’ni ikki sistema o‘rtasidagi munosabatni taqqoslovchi tahlil deb qarashimiz mumkin. Bunda sistemalarning alohida koponentlari o‘rtasida qiyoslash jarayoni ro‘y beradi.

Har bir alohida til – bu yopiq holdagi sistemadir²⁴. Shuning uchun ikki tilning har qanday taqqoslanishi ikki sistemaning qandaydir darajadagi buzilishi demakdir. V. B.Kashkinning fikriga ko‘ra, tillarni taqqoslab o‘rganishning eng maqbul yo‘li – bu parallel matnlarning tahlilidir²⁵. Darhaqiqat, olimning fikriga qo‘shilsa bo‘ladi, zero matnlarni ham sintaktik ham semantik bog‘lanishi nutq mahsul²⁶ ekanligini hisobga oladigan bo‘lsak, ularni ikki va hatto uch til o‘rtasida qiyoslaganda, til birliklari doirasida taqqoslangandan ko‘ra konkretroq vaziyatga duch kelamiz.

Demak, til nazariyasida va tarjima amaliyotida oxir oqibatda situatsiyalar, kontekstlar hamda matnlar chog‘ishtiriladi. Ammo shu bilan birga, bu situativ matnlar kontinuumi alohida diskret (segment) qismlarga bo‘linadi hamda mazkur qismlarning har biri tarjimaning o‘ziga xos bir yondashuvini talab qiladi. Har bir qism bu ma’no uzatish imkoniyatini beruvchi vositalar “zahirasiidan” tanlab olingan natija sanaladi. Hozirgi kunda tilning sistema ekanligi deyarli barcha tilshunoslar tomonidan e’tirof etilmoqda. Shuning uchun ham keyingi yillarda barcha fanlarda amal qilinganligi kabi, tilshunoslikda ham sistemaviy tadqiqotlarga e’tibor berilmoqda.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ingliz va o‘zbek tillarida kichik komparativ sintaktik qurilmalar derivatsiyasi”** deb nomlanib, unda komparativ birikmalar hamda komparativ sodda gaplar derivatsiyasi tamoyillari yoritilgan.

Mazkur bobning birinchi fasli *“Komparativ birikmalar derivatsiyasi”* deb nomlanadi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, so‘z birikmasi sintaksisi bobida jahon tilshunosligida salmoqli ishlar qilindi. Bunda V.V.Vinogradov, N.N.Prokopovich, V.N.Suxotin, N.I.Filicheva (rus tilshunosligida), V.Yung, O.Bexagel, J.Erbin (nemis tilshunosligida), A.G‘ulomov, M.Asqarova, A.Nurmonov, N.Mahmudov (o‘zbek tilshunosligida) kabi olimlarning ulushlari katta bo‘ldi.

Aytish joizki, hozirda “birikma” tushunchasi keng ma’nodan tushuniladi. Har qanday so‘zlarning leksik va grammatik aloqaga kirishuvidan birikma hosil bo‘ladi²⁷. Adabiyotlarda mustaqil va mustaqil, shu bilan birga, mustaqil va mustaqil

²⁴. V.Skalichka O‘sha asar, o‘sha bet.

²⁵. Qarang: Кашкин В.Б. Сопоставительная лингвистика. – Воронеж. - 20017. С. 11.

²⁶. Qarang: Turniyazova Sh.N. Hozirgi o‘zbek tilida matn shakllanishining derivatsion xususiyatlari. Monografiya. – Toshkent. - 2016. 36-b.

²⁷. Qarang: G‘ulomov A.Sh. O‘zbek tili sintaksisi ba’zi masalalari. // O‘zbek tili va adabiyoti, № 2, 1969, 13 bet.

bo'lmagan so'zlar birikma sanaladi degan fikrlar mavjudligini guvohi bo'lishimiz mumkin²⁸.

Biroq biz ishimizda har qanday birikma emas, balki so'z birikmalari va ularning derivatsion-komparativ xususiyatlarini ko'rib chiqishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz. Ma'lumki, "derivatsiya" yasalish, hosil bo'lish, shakllanish degan ma'noni bildiradi. Yasama so'zlarga nisbatan biz leksik derivatsiya tamoyillarini qo'llasak, derivatsiya so'zining "yasalish" degan tarjimasini o'rinli deb bilamiz. Ammo so'z birikmalariga nisbatan "derivatsiya" atamasining "yasalish" degan variantini emas, balki "hosil bo'lish", "shakllanish" kabi tarjimalarini qo'llasak, fikrimizcha maqsadga muvofiq bo'ladi.

Aytish joizki, so'z birikmalari kichik sintaktik qurilma sifatida sintaktik derivatsiya mahsuli sanaladi va derivatsion nuqtai nazardan tahlil qilinganda, ularga nisbatan ham operator, operand va derivat atamalari qo'llaniladi. Masalan: *Qalamning uchi*. Mazkur birikmada *qalam* va *uch* so'zlari operand, *-ning* va *-i* qo'shimchalari operator sanaladi. Bu vaziyatda biz oldingi ishlarimizda ham ta'kidlab o'tganimizdek, dublooperator maqomidagi vositalarga duch kelyapmiz.

So'z birikmasining sintaktik derivatsiyasini o'rganishda hokim komponent bilan tobe komponentning qay tarzda munosabatga kirishuvi masalasi muhimdir. Aynan shu narsa sintaktik derivatsiya hodisasining eng yuqori nuqtasini belgilaydi. Zero aloqa vositasi sintaktik derivatsiya operatori vazifasini bajaradi. Operator – bu sintaktik derivatsiyaning mutlaq hokim unsuri demakdir²⁹.

Ta'kidlash lozimki, so'z birikmalarining ma'nosi, so'z birikmasi tarkibidagi so'zlarning ma'nosiga ko'p jihatdan bog'liq. So'z birikmasi komponentlaridan biri qolib, ikkinchisi o'zgarsa, so'z birikmasining ham ma'nosi semantik jihatdan o'zgaradi:

1. *go'zal tabiat*

go'zal qiz

2. *qora tulpor*

uchqur tulpor

Ko'rinib turganidek, keltirilgan misollarning birinchisida bosh so'z, ikkinchisida esa ergash so'z o'zgargan. Bu albatta uning semantik ma'nosiga ta'sir qilyapti. Ammo sintaktik qurilmaga ta'sir etmayapti. Derivatsion jihatdan ham deyarli o'zgarish bo'lmayapti.

1. *Go'zal, tabiat* – operand, ichki ma'no operator.

Go'zal, qiz – operand, ichki ma'no operator.

2. *Qora, tulpor* – operand, ichki ma'no operator.

Uchqur, tulpor – operand, ichki ma'no operator.

Bu o'rinda operator yo'q deya olmaymiz, zero operator bo'lmas ekan, derivatsiya ham bo'lmaydi. Berilgan misollarimizda operator nol ko'rinishdadir. Turniyozov N.K. bunday vaziyatlarda "nol operator" atamasini qo'llagan³⁰. Biroq "nol operator" tushunchasi nisbiydir. Chunki sintaktik derivatsiya operatorsiz

²⁸. Qarang: Sharipov M.K. Hozirgi o'zbek tilida so'z birikmasi sintaksisi masalalari. Toshkent, 1978.

²⁹. Qarang: Turniyozov N.K. O'zbek tili deriavatsion sintaksisiga kirish. – Samarqand, 1990, 8-bet.

³⁰. Qarang: Turniyozov N.K., Turniyozov B.N., Turniyozova Sh.N. O'zbek tili derivatsion sintaksisi. Toshkent, 2011.

vujudga kelmaydi. Ayni paytda aniqlovchi-aniqlanmish munosabati tilning ichki qonun qoidalari va nutqning talabi asosida to‘g‘ridan-to‘g‘ri vujudga kelmoqda.

Ammo shu o‘rinda aytish lozimki, yuqoridagi misollarning har ikki variantida ham sirtidan qaraganda semantik ma’no operator sanalsa-da va unda go‘yo o‘zgarish yo‘qdek ko‘rinsa-da, aslida ularning ichki ma’nosida farq bor, albatta. Zero, birinchi misolimizni tahlil qiladigan bo‘lsak, birinchi o‘rinda so‘z tabiat haqida, ikkinchi o‘rinda esa qiz haqida ketmoqda. Bu esa juda ahamiyatlidir. Chunki gap bitishuvli birikma haqida ketar ekan, biz nafaqat sintaktik derivatsiya, balki, semantik derivatsiya haqida ham so‘z yuritishimiz kerak bo‘ladi. Shunday ekan, birinchi vaziyatda biz derivatsiya operatori sifatida birikmaning ichki ma’nosini, ya’ni tabiatning go‘zalligini, ikkinchi vaziyatda esa aynan qizning go‘zalligini operator deb olishimiz mumkin. Ko‘rinadiki, mazkur holatlarda birikmalarning ichki semantik ma’nosi operator vazifasida kelmoqda.

Ikkinchi misolimizda esa tobe so‘zning o‘zgarayotganligining guvohi bo‘lamiz. Bu misolda ham xuddi birinchi misolimizdagidek, derivatsiya operatori uning ichki ma’nosi sanaladi. Bunda garchi so‘z har ikki holatda ham tulpor haqida ketayotgan bo‘lsa ham, uchning ichki ma’nosidagi farq tulporning xususiyatlarida ko‘rinadi. Shuning uchun ham ichki ko‘rinmas operatorning maqomini aynan ana shu xususiyatlar belgilab beradi. Boshqacha aytganda, birinchi vaziyatda tulporning qoraligi, ikkinchi vaziyatda tulporning uchqurligi derivatsiya operatori sanaladi. Guvohi bo‘lganimizdek, bitishuv modelidagi kichik sintaktik qurilmalar derivatsiyasi ham sintaktik, ham semantik derivatsiyani taqozo qiladi.

Xuddi shunday holatni ingliz tilida ham uchratamiz:

beautiful, nature – operand, ichki ma’no operator.

beautiful, girl – operand, ichki ma’no operator.

running, steed – operand, ichki ma’no operator.

black, steed - operand, ichki ma’no operator.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli “*Komparativ sodda gaplar derivatsiyasi*” deb ataladi. Sodda gap strukturasi derivatsion tahlili esa so‘z birikmasi derivatsiyasidan farqli o‘laroq, avvalo, tub strukturani, tub struktura zamirida esa tayanch strukturani topishga asoslanadi³¹. Chunki hosila strukturalar muayyan bo‘shliqdan paydo bo‘lib qolmaydi. Ularning voqelanishi qat’iy ravishda ma’lum tayanch strukturaga asoslanadi.

Tub struktura haqida gapira ekanmiz, bu masalada olimlarning fikrlari turlicha ekanligining guvohi bo‘lamiz. Chunonchi, V.A.Zveginsev tub strukturaga nihoyatda keng tarqalgan va bir vaqtning o‘zida o‘ta mavhum kategoriya deb ta’rif beradi³². Tub strukturani “глубинная структура” deb ta’riflagan O.Espersen esa, bu kategoriyani nolingvistik maqomga ega deb yozadi. Chunki olim tub strukturani tushuncha kategoriyasi tarzida izohlaydi. Ammo bir qator olimlar bu fikrga qarshi chiqadi. Jumladan, N. Turniyozov shunday yozadi: “Nazarimizda, O.Espersenning tushuncha kategoriyasi (понятийная категория) haqida bildirilgan mulohazalarida ba’zi noaniqliklar ko‘zga tashlanadi. Xususan, mazkur

³¹ . Turniyozov N., Turniyozov B., Turniyozova Sh. O‘sha asar, o‘sha bet.

³² . Звегинсев В.А. Язык и лингвистическая теория –М., 1973. – С.180.

kategoriyaning nolingvistik maqomga ega ekanligi haqida aytilgan fikr izoh talab qiladi. Bizningcha, bu kategoriyaning nolingvistik xarakterli deydigan bo'lsak, u holda tub struktura tushunchasining til bilan aloqasi bo'lmaydi va u to'liq mantiqiy yoki semantik kategoriya hisoblanadi. Agar bu kategoriyaning, garchi u tafakkurimizda mavjud bo'lsa-da, tilning biror morfologik vositasiga, masalan, kesim vazifasidagi so'zga bog'liqlik jihati bo'lsa (albatta, u kesimga bog'liq. Chunki tub struktura predikat doirasida shakllanadi), u holda uni nolingvistik kategoriya sifatida o'rganish noo'rindir".

Mazkur fikrga qo'shilgan holda yana shuni ham aytsa bo'ladiki, tushuncha kategoriyasi tafakkur kategoriyasidir, shu bilan birga, hech shubhasiz til kategoriyasi hamdir. Aks holda I.I.Meshchaninov ta'biri bilan aytganda, u tilda o'z aksini topmasdan faqat tafakkurdagina mavjud bo'lib qolaverardi.

Umuman olganda tub struktura gapning sintaktik strukturasi shakllanishi uchun asos struktura vazifasini bajaradi:

1. *Bobur navkarlari bilan Feruza darvozasi yonida to'xtadi* (P.Qodirov. *Yulduzli tunlar*).

2. *Mrs. Reed silently left the room* (Sh. Bronte. *Jane Eyre*).

Ko'rinaldiki, tub struktura keltirilgan misollarning birinchisida *to'xtadi* va ikkinchisida *left* so'zlari orqali ifodalanmoqda.

Ingliz tilida ham gapda ifodalangan so'zlardan qat'i nazar formula shundayligicha qolaveradi:

Everyone saw the rider (Mayne Reed *is a Headless Horseman.*)

1. Tub struktura – *saw*

2. Tayanch struktura – *Everyone saw*

3. Hosila struktura – *Everyone saw the rider.* (operator *the*).

Buni formula bilan quyidagicha ifodalash mumkin:

$N - N + V - N + X + V$

Shunisi xarakterliki, gap shakli yangi komponentlarning qo'shilishi natijasida kengayishi jarayonida yangi-yangi hosila strukturalar shakllanib, maydonga yangi operatorlar chiqaveradi. Bunda, albatta, oldingi operator o'z o'rnini keyingi operatorga bo'shatib beradi:

Oshxonada bir zamonlar bog'dan kelgan bir-ikkita yong'oq to'nka bor (G'.G'.*ulom.Mening o'g'rigina bolam*).

Berilgan misolda gap sintaktik shaklining kengayishi applikativ usulda ro'y berib, sintaktik derivatsiya besh bosqichda voqelanmoqda:

Bor – tub struktura.

To'nka bor – tayanch struktura.

Yong'oq to'nka bor – derivat (hosila).

Bir-ikkita yong'oq to'nka bor - derivat (hosila).

Bog'dan kelgan bir-ikkita yong'oq to'nka bor - derivat (hosila).

Bir zamonlar bog'dan kelgan bir-ikkita yong'oq to'nka bor- derivat (hosila).

Oshxonada bir zamonlar bog'dan kelgan bir-ikkita yong'oq to'nka bor-derivat (hosila).

Mazkur gapning sintaktik derivatsiyasi **-da** (oshxonada) operatoriga tobe ekanligini ko'rishimiz mumkin. Derivatsion jarayonning birinchi bosqichi nol

operator, ikkinchi bosqichi –ta, uchinchi bosqichi –gan, to‘rtinchi bosqichi –lar hamda oxirgi boqsqichi –da qo‘shimchalari bilan voqelanmoqda. Mazkur operatorlarning eng so‘ngisi esa gap sintaktik derivatsiyasining operatori maqomini olmoqda.

Derivatsion jarayonda applikativ modelning qo‘llanilishining imkoniyatlari ancha keng. Applikativ model orqali tayanch struktura asosida gap shakli istalgancha kengaytirilishi mumkin. Bu jarayon tayanch strukturaning bo‘sh o‘rinlarini to‘ldirish evaziga yuzaga keladi:

The Indians brutally took revenge on the murderers of Montezuma (Mayne Reed. The White Chief).

took revenge – tub struktura.

The Indians took revenge – tayanch struktura.

The Indians brutally took revenge – derivat (hosila).

The Indians brutally took revenge on the murderers – derivat (hosila).

The Indians brutally took revenge on the murderers of Montezuma – derivat (hosila).

V- tub struktura

N+V- tayanch struktura

N+X+V - derivat (operator **-nol**)

N+X₂+V - derivat (operator - *on the*)

N+X₃+v - derivat (operator – *of*)

Ana shu holat yaxlitligicha olingani holda keltirilgan gapning sintaktik derivatsiyasi voqelanishining algoritmini tashkil etadi.

Dissertatsiyaning **“Ingliz va o‘zbek tillarida katta komparativ sintaktik qurilmalar derivatsiyasi”** deb nomlangan uchinchi bobida teng komponentli komparativ murakkab sintaktik qurilmalar hamda tobe komponentli komparativ murakkab sintaktik qurilmalar derivatsiyasi va ularning struktur xususiyatlari haqida so‘z yuritilgan. Mazkur bob uch fasldan iborat bo‘lib, uning birinchi fasli *“Teng komponentli komparativ murakkab sintaktik qurilmalar derivatsiyasi”* deb nomlanadi.

Ma’lumki, hozirga qadar tilshunoslik fanida qo‘shma gapning nazariy muammolariga bag‘ishlangan ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Jumladan, G‘.Abdurahmonov, M.Asqarova va boshqalar tomonidan bajarilgan salmoqli tadqiqotlar o‘zbek tilshunosligining taraqqiyoti uchun g‘oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, R.W.Pence³³, J.Pernald³⁴ kabi olimlar ham qo‘shma gaplar xususida fikrlar bildirib, ingliz tili grammatikasiga katta hissa qo‘shishgan.

R.Sayfullayeva qo‘shma gaplar tavsifiga formal-sintaktik nuqtayi nazardan yondashadi va qo‘shma gaplarni nutqning mikromatn nazariyasi asosida o‘rganish masalasiga jiddiy e’tibor beradi³⁵. Ayni paytda shuni ham aytish kerakki, B.Turniyozov va Sh.Turniyozovalar ham o‘z ishlarda qo‘shma gaplarda matnga

³³ R.W.Pence, A Grammar of Present Day English, New York, 1947,p»10

³⁴ J.Pernald, A Working Grammar of the English language, New York, -London, 1917, P.265.

³⁵.Sayfullaeva R. R. Hozirgi o‘zbek tilida qo‘shma gaplarning formal-funksional tahlili.- Toshkent, 1994, 304-bet.

xos belgilar mavjudligi tabiiyligini ta'kidlab o'tishadi³⁶. Shu bilan birga rus tilshunosi A.M.Peshkovskiy bir necha gap bitta gap deb atalayotganligi turli anglashilmovchiliklarga sabab bo'layotganligini aytib o'tadi³⁷. Shu fikrning o'zi ham Peshkovskiyning qo'shma gap sathida matn belgilari mavjudligi haqidagi fikrni ma'qullaganining yaqqol dalili bo'lib xizmat qiladi.

Olimlarning fikrlariga qo'shilgan holda shuni ham aytish joizki, qo'shma gaplarga nisbatan murakkab sintaktik qurilma atamasini qo'llashning o'zi ham uni gap tushunchasidan birmuncha yuqori pog'onaga ko'taradi va uni matn bilan tenglashtiradi.

Har qanday murakkab sintaktik qurilmada ham xabar ifodasining tugalligi, yaxlitligi o'z aksini topadi:

1. *Her face was open, her large eyes looked patiently and meekly, and there was a shadow of sorrow hidden in them, understandable only to those who happened to look sympathetically into the face of a helpless, grief-stricken poor man (Theodore Dreiser. Jenny Gerhardt).*

2. *Mabodo tog' orasidagi mana shu Soyboshi qishlog'iga yo'lingiz tushib, egri-bugri ko'cha-ko'ydami, surnay chalinib ziyofat berilayotgan to'y-ma'rakadami o'rta bo'y, g'ippa semiz, cho'ziqdan kelgan yuzi sarg'ayib pishgan handalakka xiyol o'xshab ketadigan, qop-qora ko'zlari hamisha kulib, charaqlab, sergo'sht lablari qiziq bir narsa aytmog'chiday tabassumga moyilnamo qimtinib turadigan yigitchaga duch kelsangiz — bu menman! (X. To'xtaboyev. Shirin qovunlar mamlakati).*

Keltirilgan misollarda berilayotgan murakkab sintaktik qurilmalar hajman farq qilsa-da, ularda fikr ifodasining tugalligi komponentlari o'rtasida bog'lanishlilik hamda sintaktik aloqa matnga xos darajada voqelanganligini ko'ramiz. Ayni paytda har ikki qurilmada ham matnga xos ochiq strukturalik hodisasi kuzatiladi. Boshqacha aytganda, ularni shakliy jihatdan kengaytirish ham, agar lozim bo'lsa toraytirish ham mumkin.

Masala tavsifiga derivatsion nuqtai nazardan yondashsak, mazkur vositalar teng komponentli MSQlarning operatorlari maqomida kelishini qayd etish zarur. MSQlarning har qanday ko'rinishi esa tayyor holdagi derivatni taqozo etadi. Hosil bo'lgan struktura bir nechta komponentning sintaktik birikuvidan shakllanadi:

1. *The old lady turned around and the boy jumped over the high fence in an instant (Mark Twain. The adventures of Tom Sawyer).*

2. *Tom wasn't the most exemplary boy in town, Aunt Polly was very upset, but Tom didn't notice it (Mark Twain. The Adventures of Tom Sawyer).*

